

## AKUSTIK MNESTIK AFAZIYADA LOGOPEDIK KORREKSION ISH BOSQICHLARI.

**O'tbasarova Umida Mexmanovna**

Alfraganus Universiteti oliy ta'lim tashkiloti

Pedagogika va Psixologiya PhD v.b dotsent

**Islomova Dilnura Farruh qizi**

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti,

Defektologiya yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Afaziyaning bu shakli eshitish va nutqning motor funksiyasi xavfsizligiga qaramay, so'zlarni idrok etish va ko'paytirish qobiliyatining buzilishi bilan tavsiflanadi. Akustik-mnestik afaziya bo'r bo'lgan bemorlar tovushlarni, ayniqsa nutq kontekstida tanib olishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va mazmunli so'zlarni unutishlari mumkin, bu esa oddiy iboralarni tushunish va takrorlashni qiyinlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** Akustik-mnestik, kartochka, real, syujet, artikulyatsion, afaziya, rasm, bemor, so'z, bosqich, buzilish.

**Аннотация:** эта форма Афазии характеризуется нарушением способности воспринимать и воспроизводить слова, несмотря на безопасность двигательной функции слуха и речи. Пациенты с меловой акустико-мнестической афазией испытывают трудности с распознаванием звуков, особенно в контексте речи, и могут забыть значимые слова, что затрудняет понимание и повторение простых фраз.

**Ключевые слова:** Акустико-мнестический, карточный, реальный, сюжетный, артикуляционный, афазия, образ, пациент, слово, стадия, искажение.

**Annotation:** This form of Aphasia is characterized by a violation of the ability to perceive and reproduce words, despite the safety of the motor function of hearing and speech. Patients with Cretaceous acoustic-mnestic aphasia have difficulty recognizing sounds, especially in the context of speech, and may forget significant words, making it difficult to understand and repeat simple phrases.

**Key words:** Acoustic-mnestic, card, real, plot, articulatory, aphasia, image, patient, word, stage, distortion.

Akustik- mnestic afaziyada bemor eshitish yordamida suhbatdoshining nutqini xotirada saqlab olib qo'lish qobiliyati buziladi. Akustik- mnestic afaziyada eshituv xotirasini tiklash uchun bemorda saqlanib qolgan koruv xotirasiga tayaniladi. Bu afaziya turida korreksion ish bosqichlari quydigilarini o'z ichiga oladi.

- Bemorda qisqa hikoyalarni qayta hikoya qilishga orgatish.
- Berilgan savollarga javob berishga o'rgatish.
- Diktant yozishga o'rgatish.
- Logoped bilan birgalikda jummalarni o'qish va takrorlashga orgatish.

Dastlabki bosqichlarda bemordan tana qisimlarini ko'rsatish soroladi, avval bitta tana qismi keginchalik birinchi va ikkinchi tana qisimlarini.

Masalan: boshingizni ko'rsating. Ikhta tana qismida. Boshingizni va o'yog'ingizni ko'rsating. Bu berilgan vazifa real holatda ko'rsatiladi so'ngra rasmlı kartochkalar asosida ko'rsatiladi, bosma harflarda ifodalangan yozuv asosida ko'rsatiladi, huddi shu soralgan savol bemorga diktant qilib yozdiriladi. Bemorga berilgan vazifa 5-10 soniyadan so'ng qayta so'raladi. Oradan bir daqiqa o'tkanidan so'ng bu savol yana qayta so'raladi. Bemorga rasm asosida gap tuzish va ko'zini

yumgan holatda tuzgan gapini qayta aytishi talab qilinadi. Bemor rasm asosida tuzgan gapini tagiga bosma harflarda diktant yozishi kerak. Keginchalik bemorga yordam beruvchi hamma vizual vositalar olib tashlanadi. Bemor faqatkina xotirasiga tayangan holatda eshitgan hikoyasini qayta gapirib beradi. L.S Svetkova akustik mnestic afaziyada nutqning tiklash bo'sqichlarini 3 ga ajratadi.

### **1 Bosqich:**

Bemorda ko'ruv idrokini tiklashdan boshlanadi. Bunda bemorga predmetlarni rasmini chizish, yani predmetlardagi yetmay olgan qisimni chizish yordamida predmetning to'liq tasviri bemorning xotirasida muxrlanadi.



Vaqt o'tishi bilan bemorda koruv diqqati yaxshilanib boradi va bemorga qiyinroq bo'lgan rasmlar beriladi.



Bemorga bir qancha predmetlar umumlashtirish va bo'laklarga bo'lishni o'rganadi. Bemorning oldiga syujetli rasm qo'yiladi va shu syujetli rasm daqiqa so'zlari tushirilib qolingan rasm qo'yiladi.

Masalan: Qish fasli.



**KUMUSH ... KIRIB KELDI. BOLALAR BIR-BIRIGA ...  
O'TISHAR EDI. QISH FASLIDA KUNLAR JUDA ...  
SOVUQ BO'LADI.**


## **2 Bosqich:**

Bemorda qaytalanuchi nutqni tiklash ishlari olib boriladi. Bu usul yo'rdamida bemor o'ziga qaratilgan nutqni tushunish uchun xizmat qiladi. Har bir bemor uchun logoped so'z yoki bog'ini bemor uchun tanish bo'lgan eshitilshi jihatidan bemor tomonidan idrok qilinadigan so'zni butunligicha eshitiriladi. Bemor birinchi bo'g'ini ikki uch marotaba qaytaradi.

Masalan: Pomidor. Po-Po-Po, Mi-Mi-Mi, Dor-Dor-Dor. Kengi bo'sqichda bemor 1-2 bog'ining birlashtirgan holatda 2-3 marta takrorlaydi.

Masalan: **POMI-DOR, POMI-DOR**

Bemor 1ta so'zning butunligicha aytganidan so'ng shu so'z kerakli rasm asosida bog'lanadi.



## POMIDOR

### 3 Bosqich:

Bemorda nutqni tushunish tarbiyalanadi. Buning uchun bemorga berilagan matn ichidagi so'zlar aralash holatda beriladi. Bemorda psevdobulvar o'rta darajasi kuzatilgan sababli til, jag' lab uchun artikulyatsion mashqlar birgalikda olib bo'riladi. Mayda qo'l motorikasi harakatlari artikulyatsion harakatlari bilan birgalikda olib boriladi. Bemorda tovushlar talaffuzidan tashqari ovoz buzilishlari ham kuzatilganligi sababli unli tovushlarni baland past o'rta ovozda qo'shiq kuylash mashqlari olib boriladi.

### Xulosa:

Shu bilan birga, bemorning ahvoli yaxshilanishi kasallikning erta tashxisiga va tezroq rehabilitatsiyaga bog'liq. Akustik-mnestik afaziya-bu murakkab va uzoq muddatli

davolanishni talab qiladigan holat. Ushbu davolanishning muvaffaqiyatiga erishish uchun zamonaviy usullardan foydalanish va individual yondashuv zarur.

**Foydalanilgan adabyotlar:**

1. Афазия и восстановительное обучение: Тексты / Под ред. Л. С. Цветковой, Ж. М. Глозман. М., 1983.
2. Бейн Э. С. Афазия и пути ее преодоления. Л., 1964.
3. Бурлакова М. К. Коррекционно-педагогическая работа при афазии. М., 1991.
4. Визель Т. Г. Как вернуть речь. М., 1998.
5. Визель Т. Г. Нейропсихологическое блиц-обследование: Тесты по исследованию высших психических функций. М., 2005.
6. Svetkova, L.S. vosstanovitelnoye-Afaziya  
«obucheniye L.S.Svetkova. - М., 1988.